O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

# *60210100-Texnogen san’at bakalavriat ta’lim yo‘nalishining*

# *MALAKA TALABLARI*

Toshkent-2024

O‘zR OTFIV
Buyruq№ 218
2024yil “25” 06

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil "25" июн dagi 218 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| **1.** | **Umumiy tavsifi** | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talabining qo'llanilishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | Kasbiy faoliyatining sohalari | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatlarining obyektlari | 4 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalari | 5 |
| **2.** | **Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar** | 6 |
| **3.** | **Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar** | 7 |
| **4.** | **Fanlar katalogining tuzilishi** | 8 |
| | **Bibliografik ma'lumotlar** | 12 |
| | **Kelishuv varag'i** | 13 |

**1. Umumiy tavsifi**

60210100 – Texnogen san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60210100 – Texnogen san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:**

60210100 – Texnogen san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari san'at va madaniyat muassasalaridagi ijodiy jarayonni tashkil etish, faoliyat tizimini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, san'at va madaniyat sohasida kompleks masalalarni yechish, madaniyat va san'at sohasini boshqarishga tegishli muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi kinemotografiya agentligi, O'zbekfilm kinokonserni DUK, Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi DUK, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va uning huzuridagi barcha teleradiokanalar, nodavlat kinostudiyalar va telekanallar assotsiatsiyasi, O'zMTRK "Respublika Teleradiomarkaz" DM, "Toshkent radio eshittirish uyi", davlat boshqaruvi organlari.

*60210100 – Texnogen san'at* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning professional ta'lim va Texnogen san'at: musiqiy ovoz rejissyorligi (ixtisosligi) yo'nalishlari bundan mustasno.

60210100 – Texnogen san'at: musiqiy ovoz rejissorligi ixtisosligi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari Televideniye-radio, teatr, konsert tashkilotlari va musiqiy ovoz yozish studiyalarida ovoz rejissori, ovoz operatori, ovoz rejissyorligi fanlari o'qituvchisi kvalifikatsiyalariga ega bo'lish mumkin.

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy- tadqiqot.*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ijodiy-ishlab chiqarish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

**1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60210100 – Texnogen san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faolyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan madaniyat va san'atga oid ilmiy-ijodiy axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

madaniyat va san'at sohasi ob'ekti va predmetlarini nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etish;

mavzu bo'yicha ilmiy-ijodiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-ijodiy natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

**Tashkiliy-boshqaruv va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:**

tashkiliy-boshqaruv jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ijodiy-ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

tashkiliy-boshqaruv jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslub va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

tashkiliy-boshqaruv jarayonida sifatni boshqarish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

turli fikrlilik sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

birlamchi ishlab chiqarish guruh ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

badiiy, hujjatli, ilmiy-ommabop va animatsion filmlarni ovozlashtirish, ularga musiqiy va shovqinli bezak berish;

kino tasvirga tushirish jarayonida ovoz yozib olish;

yozib olingan materiallarni qayta ishlash va ularning badiiyligini oshirish;

tomosha asarlari uchun musiqiy yozuvlarni amalga oshirish;

musiqiy va ovoz partituralari bilan ishlash;

musiqiy aranjirovka ustida ishlash;

teatr tomoshagohlarida ovoz rejissyorligi faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

tomoshagohlarda akustik muhit yaratish;

turli rusmdagi ovoz kuchaytiruvchi moslamalardan foydalanish;

ommaviy tadbirlarda ovoz rejissyorligi ishlarini bajarish;

dublyaj va ovozlashtirish;

ijro etilgan vokal va cholg'u yo'llarini kompyuter dasturlari yordamida tonal tozalash;

cholg'uchilar, va turli sozandalar dastalari ijrosidagi musiqiy asarlarni yozib olish va qayta ishlash;

zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda eski yozib olingan asarlarni restavratsiya qilish;

tenglashtirish va mastering qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

madaniyat va san'at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ovoz yozish va uzatish texnik qurilmalaridan (mikrofonlar, miksher pultlari, kuchaytirgichlar, akustik tizimlar va h.k.lardan) foydalanish;

ovoz yozish va uzatish texnik qurilmalarini ishlatish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish;

ovoz yozish va uzatish sohalarida ijodiy faoliyat jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish;

yozib olingan asarlarni ta'mirlash va qayta ishlash, ovoshlashtirish va tovushni qayta ishlash sohasida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;

tomosha san'atlarining turli sohalarida ovozlashtirish ishlarini olib borish;

zamonaviy kompyuter dasturlari asosida reklama, animatsion, video roliklarni ovozlashtirish va qayta ishlash, televidenie, radio, kino va teatr san'atlari sohasida o'tkazilayotgan tadbir va loyihalarda prodyussarlik faoliyatini olib borish;

madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish, ijodiy-ishlab chiqarishni tashkil etish;

aholining dam olishini tashkil qilish, badiiy jamoalarni tashkil etish va faoliyatini boshqarish;

festival, ko'rik-tanlovlarni tashkil etish;

O'zbekiston Milliy kinematografiya sohasidagi mavjud muammolarni o'rganish tahlil qilish va ijodiy ishlarni tashkillashtirish;

aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish.

**3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O'quv amaliyoti (ovoz yozuvi amaliyoti);
3. Ishlab chiqarish amaliyoti (pedagogik amaliyot);
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | | | |
| 1.01 | O'zYT 20014 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | FAL 20014 | Falsafa | 120 | 4 | 3 |
| 1.03 | DIN 20014 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | O'z RT 20014 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 1,2 |
| 1.05 | XT 20014 | Xorijiy til | 120 | 4 | 1,2 |
| 1.06 | PYA 20012 | Pedagogika-psixologiya | 60 | 2 | 1 |
| 1.07 | MST 20012 | Madaniyat va san'at tarixi | 60 | 2 | 7 |
| 1.08 | FOYA 200118 | Filmda ovoz yozish amaliyoti | 540 | 18 | 3,4,5,6 |
| 1.09 | ORM 200170 | Ovoz rejissyorligi mahorati | 2100 | 70 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.10 | KRA20018 | Kinoteledramaturgiya va rejissura asoslari | 240 | 8 | 1,2,3,4 |
| 1.11 | MN 20012 | Musiqa nazariyasi | 60 | 2 | 3 |
| 1.12 | SOL 20012 | Solfedjio | 60 | 2 | 4 |
| 1.13 | OYKT 20018 | Ovoz yozishda kompyuter tehnologiyalari | 240 | 8 | 3,4,5,6 |
| 1.14 | AA 20018 | Akustika asoslari | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.15 | SN 20014 | Sahna nutqi | 120 | 4 | 1,2 |
| 1.16 | OYA 200116 | Ovoz yozish aksessuarlari | 480 | 16 | 1,2,3,4,5,6 |
| 1.17 | MSHB 200118 | Musiqa va shovqinlar bezagi | 540 | 18 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.18 | FICHM 200112 | Film ishlab chiqarish va marketing | 360 | 12 | 4,5,6,7 |
| 1.19 | O'z JA 20014 | O'zbek va jahon adabiyoti | 120 | 4 | 1,2 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **240** | **8** | **5,6,7** |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar* | 240 | 8 | *5,6,7* |
| *Kvalifikatsiya* | | *Kino, televidenie va radio ovoz rejissyorligi* | | | |
| | | **JAMI:** | **6060** | **202** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | 900 | 30 | 2,4,6,8 |
| | | **Bitiruv malakaviy ishi** | 240 | 8 | 8 |
| | | **JAMI:** | **1140** | **38** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

| *Texnogen san'at: musiqiy ovoz rejissyorligi* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **6300** | **210** | |
| 1.01 | *O'EYT1104* | O'zbekistonning eng yangi tarixi | **120** | **4** | *1* |
| 1.02 | *O'RT1102* | O'zbek (rus) tili | **60** | **2** | *1* |
| 1.03 | *XT1409* | Xorijiy til | **270** | **9** | *4--7* |
| 1.04 | *DIN1104* | Dinshunoslik | **120** | **4** | *7* |
| 1.05 | *FAL1104* | Falsafa | **120** | **4** | *7* |
| 1.06 | *MPP1105* | Musiqiy pedagogika va psixologiya | **150** | **5** | *4* |
| 1.07 | *KP1105* | Kaśbiy pedagogika | **150** | **5** | *5* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.08 | *MRS1817* | Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati | **510** | **17** | *1--8* |
| 1.09 | *ORK1102* | Ovoz rejissyorligiga kirish | **60** | **2** | *1* |
| 1.10 | *ORA1612* | Ovoz rejissyorligi akustikasi asoslari | **360** | **12** | *3--8* |
| 1.11 | *TOR1617* | Televideniye ovoz rejissyorligi | **510** | **17** | *3--8* |
| 1.12 | *JMT1209* | Jahon musiqasi tarixi | **270** | **9** | *2,3* |
| 1.13 | *O'MT1210* | O'zbek musiqasi tarixi | **300** | **10** | *1,2* |
| 1.14 | *O'MN1105* | O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi | **150** | **5** | *3* |
| 1.15 | *AO'M1104* | An'anaviy o'zbek musiqasi | **120** | **4** | *4* |
| 1.16 | *SHMT1105* | Sharq xalqlari musiqa tarixi | **150** | **5** | *6* |
| 1.17 | *SIO1205* | Solfedjio | **150** | **5** | *1,2* |
| 1.18 | *GYA1205* | Garmoniya | **150** | **5** | *1,2* |
| 1.19 | *MAT1204* | Musiqa asarlari tahlili | **120** | **4** | *3,4* |
| 1.20 | *PYA1204* | Polifoniya | **120** | **4** | *5,6* |
| 1.21 | *FNO1404* | Fortepiano | **120** | **4** | *1--4* |
| 1.22 | *MRU1104* | Musiqiy ovoz rejissyorligi fanlarini o'qitish uslubiyoti | **120** | **4** | *8* |
| 1.23 | *KMT1104* | Kompyuter musiqasi texnologiyalarini o'qitish uslubiyoti | **120** | **4** | *8* |
| 1.24 | *KSJ1310* | Konsert zallari va ovoz yozish studiyasi jihozlari | **300** | **10** | *3--5* |
| 1.25 | *FTT1204* | Ko'p yo'lakli fonogrammalarni tenglashtirish texnologiyasi | **120** | **4** | *7,8* |
| 1.26 | *FEA1207* | Fizika va elektronika asoslari | **210** | **7** | *1,2* |
| 1.27 | *EKM1412* | Elektron va kompyuter musiqasi | **360** | **12** | *3--6* |
| 1.28 | *OXT1102* | Ovoz kuchaytirish apparaturasi va xavfsizlik texnikasi | **60** | **2** | *2* |
| 1.29 | *ZMA1313* | Zamonaviy musiqiy audiodasturlar | **390** | **13** | *6--8* |
| 1.30 | *CHG'K1205* | Cholg'ushunoslik (simfonik orkestr;XCHO) | **150** | **5** | *1,2* |
| 1.31 | *CHG'SH1202* | Cholg'ulashtirish (simfonik orkestr; XCHO) | **60** | **2** | *3,4* |
| 1.32 | *PTO'1204* | Partitura o'qish (simfonik orkestr; XCHO) | **120** | **4** | *5,6* |
| 1.33 | *TTQ1207* | Tinglab taxlil qilish | **210** | **7** | *1,2* |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **300** | **10** | *3,5,6,7* |
| *Kvalifikatsiya* | | *Ovoz rejissyori, o'qituvchi* | | | |
| | | **JAMI:** | **6600** | **220** | |
| | | **Malaka amaliyot** | 450 | 15 | *3,4,5,6,8* |
| | | **Bitiruv malakaviy ishi** | 150 | 5 | *8* |
| | | **JAMI:** | **600** | **20** | |
| | | **HAMMASI:** | **7200** | **240** | |

| *Texnogen san'at: musiqiy ovoz rejissyorligi* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | **Majburiy fanlar** | | | | |
| 1.01 | *MORS1823* | **Musiqiy ovoz rejissyorligi san'ati** (Ovoz rejissyorligiga kirish) | 690 | 23 | 1,2,3,4,5,6,7, 8 |
| 1.02 | *MT1820* | **Musiqa tarixi** (O'zbek musiqasi tarixi; Jahon musiqasi tarixi; An'anaviy o'zbek musiqasi; O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi; Sharq xalqlari musiqasi tarixi va etno-jaz) | 600 | 20 | 1,2,3,4,5,6,7, 8 |
| 1.03 | *MET1819* | **Musiqiy estrada tarixi** (Jaz musiqasi tarixi; Rok musiqasi tarixi; Pop musiqasi tarixi; O'zbekiston musiqiy estrada san'ati tarixi) | 570 | 19 | 1,2,3,4,5,6,7, 8 |
| 1.04 | *MN1630* | **Musiqa nazariyasi** (Solfedjio; Jaz solfedjiosi; Garmoniya; Jaz garmoniyasi; Musiqa asarlari tahlili; Polifoniya) | 900 | 30 | 1,2,3,4,5,6, |
| 1.05 | *MPP1105* | Musiqiy pedagogika va psixologiya | 150 | 5 | 3 |
| 1.06 | *KP1204* | Kasbiy pedagogika | 120 | 4 | 4,5 |
| 1.07 | *DIN1104* | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.08 | *JMS1102* | Jismoniy madaniyat va sport | 60 | 2 | 1 |
| 1.09 | *FAL1104* | Falsafa | 120 | 4 | 8 |
| 1.10 | *O'EYT1104* | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.11 | *XT1615* | Xorijiy til | 450 | 15 | 3,4,5,6,7,8 |
| 1.12 | *FOR1205* | Fortepiano | 150 | 5 | 1,2 |
| 1.13 | *TTQ1205* | Tinglab tahlil qilish | 150 | 5 | 1,2 |
| 1.14 | *ORAA1613* | Ovoz rejissyorligi akustikasi asoslari | 390 | 13 | 3,4,5,6,7,8 |
| 1.15 | *RTOR1613* | Radio va televideniye ovoz rejissyorligi | 390 | 13 | 3,4,5,6,7,8 |
| 1.16 | *FEA1205* | Fizika va elektronika asoslari | 150 | 5 | 1,2 |
| 1.17 | *ARA1510* | **Aranjirovka asoslari** (Cholg'ushunoslik; Cholg'ulashtirish; Partitura o'qish) | 300 | 10 | 2,3,4,5,6 |
| 1.18 | *OYSTJ1308* | Ovoz yozish studiyalari, konsert zallari va ochik maydonlarda foydalaniladigan zamonaviy texnik jihozlar | 240 | 8 | 6,7,8 |
| 1.19 | *MORU1104* | Musiqiy ovoz rejissyorligi fańlarini o'qitish uslubiyoti | 120 | 4 | 7 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.20 | *KMTU1104* | Kompyuter musiqasi texnologiyalarini o'qitish uslubiyoti | 120 | 4 | 8 |
| 1.21 | *EKM1510* | **Elektron va kompyuter musiqasi** (Zamonaviy musiqiy audiodasturlar) | 300 | 10 | 4,5,6,7,8 |
| 2.00 | | **Tanlov fanlar** | **300** | **10** | **3-7** |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar* | 300 | 10 | 3-7 |
| *Kvalifikatsiya* | | *Ovoz rejissyori, o'qituvchi* | | | |
| | | **Jami:** | **6510** | **217** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | 540 | 18 | 2,3,4,5,6,7,8 |
| | | **Bitiruv malakaviy ishi** | 150 | 5 | 8 |
| | | **Jami:** | **690** | **33** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

Kino, televideniye, radio, teatr, tomosha, ovoz, studiya, dastur, insenirovka, montaj, badiiy, obraz, musiqa, shovqin, elektron, akustika, texnika, video, klip, nutq, partitura, effekt, ko'rsatuv, eshittirish, postanovka, aktyor, rejissyor, san'at, mahorat, sahna, badiiy obraz, g'oya, ijod, asar, pesa, drama, rol, ijobiy, salbiy, plastika, raqs, ijro, ovoz, nutq, kino, obraz, televideniye, radio, drama, kino, rejissyor, tadqiqot, adabiy, badiiy, tanqid, sahna, spektakl, pesa, ijod, ijro, jamoa, shaxs, ijobiy, salbiy, tragediya, komediya, opera, balet, estrada, satira.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

## ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**Rektor** __________ **N.B.Sayfullayev**

2024-yil "25" 06

M.O'.

## KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor** __________ **M.R.Boltaboyev**

2024-yil "25" 06

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi**

**Bo'lim boshlig'i** __________ **O.R.Salixov**

2024-yil "25" 06

M.O'.

**Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi DUK**

**Direktor** __________ **O.O.Sodiqov**

2024-yil "25" 06

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi**

**Direktor v.b** __________ **Sh.T.Rizayev**

2024-yil "25" 06

M.O'.

**"O'zbekfilm" kinokonserni DUK**

**Direktor** __________ **B.K.Adilov**

2024-yil "25" 06

M.O'.

**O'zbekiston davlat konservatoriyasi**

**Rektor** __________ **K.T.Urinbayev**

2024-yil "25" 06

M.O'.